

CHIZMACHILIK FANININI O'QITISHNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH MASALALARI

Qaraqalpoq Davlat universiteti

A.S.Arziev, S. Kalabaieva, A.Aytimuratov

Annotatsiya: Bu maqolada o'quvchining Chizmachilik o'quv jarayonida egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko'nikmalaridan hissiy qoniqish va undan quvonish hissini hosil qilish lozim. Chizmachilik o'quvchilarining fazoviy tasavvurlarini shakillantirishda juda katta imkoniyatlarga ega.

Kalit so'zlar: Texnologiya, interaktiv, fazoviy tassovur, metod.

Mamlakatimizda amal qilayotgan uziliksiz ta'lif tizimining barcha turlari uziliksizlik asosida uzviy aloqadorlikda faoliyat ko'rsatishi Kadrlar taylorlash milliy dasturining amaldagi ijrosining muhim shartlaridan biridir.

Umumta'lif maktablaridagi zamонавиј та'lif maqsadi tarixan shakllanib kelgan pedagogik tizim asosida professional tomondan bilmlı faol, ijodiy tomonidan mustakil shaxsni tarbiyalash uchun zamin yaratishdir.

Informatsion jamiyatga o'tishda o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish o'ta muhim vazifaga aylanadi. Bu esa ta'lif modernizatsiya qilinayotgan sharoytda ta'lifning zamонавиј texnologiyalarini tadbiq qilish, o'quvchilarda o'z ustida mustaqil ishslash madaniyatini tarbiyalash va talab qilinayotgan ta'lif sifatiga erishish uchun o'ta muhimdir.

Chizmachilik fanini o'qitishni yangi bosqichga olib chiqishda har hil pedagogik o'yin texnologiyalaridan foydalanish muhim kasb etadi. Keyingi un yillikda pedagogik o'yin texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi un yillikda pedagogik uyin texnologiyalari amaliyotga yetarli darajada joriy qilindi. V.A.Krivova, L.M.Matrosova, T.M.Sorokina, S.L.Tiunnikovalar ilmiy izlanishlar etmoqqa loyiq bo'lib, ularda o'yin texnologiyalari orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishi, mustaqil ish olib borishning faollashuvi takidlanadi.

Keyingi yillarda ta'lifning o'yinli shakli eng istiqbolli va eng muvaffaqiyotli yangilik bo'lib namayon bo'ldi. O'yin texnologiyalari o'quvchilarda maqsadga intilish, faollik, tezkorlik va tafakkur masuldorligi, mustahamlik, xotira tezkorligi, takomillashganlik va o'z kuchi, irodasiga ishonich tuyg'ulari shakillanishida muhim o'rinn tutadi.

Ta'lism – tarbiya doirasidagi islohatlar asosida yangi ta'lism tizimiga o'tish uchun chizmachilik o'qituvchisi oldiga vazifalarni, muammolarni qo'ydi. Bunday dolzarb muammolar-chizmachilik fani o'qituvchisining bilmdonligini oshirish, uni texnologik va metodik jihatdan taylorlash muammolaridir. O'quvchilarni pedagogik, texnologik jihatdan taylorlash-aqliy rivojlanish, o'qitishni faollashtirish, texnologiya bilan qurollantirish, ta'lism berishning yangi usullarini izlash, ularni shu fanga qiziqtirish yo'llarini topish shu fan o'qituvchilarining ustuvor vazifalaridan biridir.

Kundan-kunga rivojlanib borayotgan hozirgi bosqich shuni taqazo etadiki, har bir pedagog zamonaviy yoshlarning dunyoqarashi va talabiga mos holda dars mashg'ulotlari o'tkazishni talab qilmoqda. Shu yulda olib borayotgan barcha tadqiqotlar ilg'or pedagogik g'oya va tajribalarni o'rganish va Chizmachilik ta'lism tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo'llarini izlamoqda.

Yangi pedagogik texnologiyalar chizmachilik o'qituvchisidan o'z kasbiga doir bilimdonlik va yangilikka intilishni talab etadi. Pedagogik texnologiyalarni egallash uchun chizmachilik o'qituvchisi yo'qori kasbiy bilimdonlik va mohorotiga ega bo'lmos'i zarur. Bundan tashqari chizmachilik fanini o'qitish o'quvchilarning ijodiy qobilyotlari shakillanishga, grafik tayyorgarlik darajasi ortishiga va bu ularning chizmachilik kursi bilan o'zaro aloqador bo'lgan boshqa fanlarni o'zlashtirishga ijobiy ta'sir qiladi.

Bolalarning «o'tish davri» shvetsariyalik psixolog Jan Riaje (1876-1980) ning fikricha, ularda ob'ekt va umuman borliq haqida mavhum fikrlashning yetilishi bilan xarakterlanadi. Fikrlash faoliyatining murakkablashishi bola hayotining barcha tomonlariga, uning hissiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Amerika psixologi Shrenli Xoll (1884-1923) ta'dbiri bilan aytganda, mazkur davr bolaning ichki va tashqi ziddiyotlari kuchaygan davri bo'lib, unda o'ziga xoslik vijudga keladi. Boshqa bir Amerikalik psixolog Erik Eriksen (1902-1981) «Bolada o'z maqsadiga erishish yo'lida «ishbilarmalik» va «ta'sirchanlik» sezgilari paydo bo'ladi. Bu yoshda mehnatga munosobatning asosi tarkib topadi» deydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi qoyilgan. Ushbu masalaning hal etuvchi ko'p jihatdan o'qitishning interaktiv metodlarini qo'llashga ham bog'liq.

Avvalo «interaktiv» tushunchasini aniqlashtirib olaylik. «Interaktiv» degan so'z inglizcha «Interact» so'zidan kelib chiqqan. «Inter» - o'zaro, «act» - ish ko'rmoq,

ishlamoq degan ma'nolarni beradi. Interaktiv o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini tashkil etishdan iboratki unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalg qilingan bo'lib erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

O'yinli texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O'yin olimlari tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

O'quvchining Chizmachilik o'quv jarayonida egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko'nikmalaridan hissiy qoniqish va undan quvonish hissini hosil qilish lozim. Chizmachilik o'quvchilarining fazoviy tasavvurlarini shakillantirishda juda katta imkoniyatlarga ega. Fazoviy tasavvur va uni rivojlanishisiz chizmachilik dasturining asosiy mavzularini o'zlashtirish mumkin emas.

Chizmachilik fanini o'qitishda yuqorida aytib o'tilgandek o'yin texnologiyalaridan va interaktiv o'qitish metodikasidan foydalanib dars olib borilsa o'quvchilar mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi, mustaqil fikrlay olish qobiliyatları oshadi, kelasi darsga tayyorlanibgina qolmasdan, ilmiy jihatdan o'z istedodlarini ko'rsatishga harakat qiladilar.

Adabiyotlar:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. //Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq. 1997.
2. Oripov V. Chizmachilik darslari samaradorligini takomillashtirish yo'llari. T.: O'qituvchi, 1986.
3. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: 2006.
4. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.T.: 2003.
5. Karimov I, Seytimbetov S. Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari. T.: 2015.